
TOSHLOQLIK SOHIBJON HASANBOYEV OSIYO VA OKEANIYA CHYEMPIONATI G'OLIBI BO'LDI

Ma'lumki, shu yilning 7-11 iyun kunlari Qozog'iston poytaxti Astana shahrida sambo bo'yicha Osiyo va Okeaniya chempionati bo'lib o'tdi. Sambo musobaqalari kattalar, o'smirlar hamda qizlar shuningdek, ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar o'rtasida o'tkazildi. Ushbu chempionatda Osiyo qit'asining 30 ga yaqin davlatlar sambochilari qatnashdilar.

Ushbu nufuzli musobaqalarda O'zbekistonlik sportchilar yuqori natijalarni qo'lga kiritib, jamoaviy hisobda 2-o'rinni egalladilar. Umumiy hisobda sportchilarimiz 7 ta oltin, 4 ta kumush, 5 ta bronza medallar sohibi bo'ldilar.

Quvonarlisi, toshloqlik Sohibjon Hasanboyev 88 kg vazn toifasida Osiyo va Okeaniya chempionati g'olibi bo'lib, oltin medal sohibi bo'ldi.

2023-06-13 10:39:33